



MARKAZIY OSIYO DAVLATCHILIGIDA QADIMGI

BAQTRIYANING TUTGAN O'RNI

Erkinova Sumayya

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

1-kurs 2.24-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada asosan, qadimgi Baqtriya davlatining tashkil topishi, chegaralari va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek qadimdan mavjud bo'lgan Baqtriya davlati haqida qadimgi yunon olimlari va Avesto manbalarida keltirilgan ma'lumotlar, bu davlat tomonidan olib borilgan harbiy yurishlar, shuningdek Ahamoniylar sulolasi davrida yuritilgan siyosat va Baqtriya davlatining madaniy hayoti haqida to'liq ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: Ktesiy, Badaxshon va Hisor, Balxob, Kofirnihon-Vaxsh, Panj, Ko'cha-Qunduz, Surxon.

Аннотация: В этой статье в основном рассказывается об основании, границах и социально-экономической жизни древнего Бактрийского государства. Также приводятся сведения о существовавшем с незапамятных времен бактрийском государстве, приведенные в древнегреческих и авестийских источниках, военные походы, проводимые этим государством, а также полемика, проводившаяся во времена династии Ахеменидов, и полная информация о культурной жизни Бактрийского государства режим.



Ключевые слова: Ктеси, Бадахшан и Хисар, Балхоб, Кафирнихан-Вахш, Пяндж, Коча-Кундуз, Сурхан.

Abstract: This article mainly tells about the foundation, borders and socio-economic life of the ancient Bactrian state. It also provides information about the Bactrian state that existed since time immemorial, given in ancient Greek and Avestan sources, military campaigns conducted by this state, as well as the controversy that took place during the Achaemenid dynasty, and complete information about the cultural life of the Bactrian state mode.

Key words: Ktesi, Badakhshan and Hisar, Balkhob, Kafirnikhan-Vakhsh, Panj, Kocha-Kunduz, Surkhan.

Kirish. Hozirgi Afg'onistonning shimoli-sharqi, O'zbekistonning janubiy va Tojikistonning janubi-g'arbida joylashgan hududlar turli yozma manbalarda Baxdi, Baqtrish, Baqtriyona, Baqtriya, Bahli, Bahlika Tuholo kabi nomlar bilan eslatib o'tiladi. Zamonaviy adabiyotlarda uni Baqtriya deb atash e'tirof etilgan " Shoxnoma" da Baxtar zamin, qadimgi Turkiylarda Bahodirlar yurti. Mil. avv. 700-540-yillar qadimgi Baqtriya davlatining rivojlangan davri bo'lib, bu yirik davlatning hududiy chegaralari: Murg'ob vohasi. Hindikush tizmasi, Badaxshon, Nurota tizmasi va Buxoro hududlariga borib taqalgan bo'lishi mumkin. Bu davrda Baqtriya viloyatlariga qadimgi Xorazm davlati va Sak-Massagetlarning harbiy-siyosiy uyushmasiga tegishli o'lkalar chegaradosh bo'lgan.¹

Mil avv.l ming yillikning birinchi yarmi Baqtriya hududlarida ko'pgina tarixiy-madaniy o'zgarishlar bo'lib o'tadi. Bu o'zgarishlar quyidagi jarayonlar bilan bog'liq edi:

¹ A.S.Sagdullayev "O'zbekiston tarixi" Toshkent 2020



1. Temir buyumlarning paydo bo'lishi va keng tarqalishi.
2. Qal'alari bo'lgan qishloqlarning paydo bo'lishi va keyin ularning shaharlarga aylanishi.
3. Moddiy madaniyatning sezilarli darajada o'zgarishi.
4. Sharqiy Eron qabilalarining migratsiyasi Miloddan avvalgi 700-540-yillar qadimgi Baqtriya davlatining rivojlangan davri bo'lib, uning hududiy chegaralari: Hindikush tizmasi, Badaxshon va Hisor tizmasiga borib tarqalgan. Baqtriya davlati O'rta Osiyoda rivojlangan dastlabki davlatlar ichida eng yirigi bo'lgan. Yozma manbalarning dalolat berishicha, Mag'iyona qadimgi Baqtriya davlatining tarkibiga kirgan.²

Baqtriya Amudaryo havzasida ayrim daryo vohalarida joylashgan beshta viloyatni birlashtirgan. Surxon, Balxob, Kofirnihon-Vaxsh, Panj, Ko'cha-Qunduz vohalarida shular jumlasidandir. Surxon vohasining markazi Qiziltepada bo'lgan, Shimoliy Afg'onistondagi Bolo Hisor o'rnida qadimgi Baqtra joylashgan. Bu shahar Geradod va Ktesiylarning ta'kidlashicha, Baqtriyaning markazi edi Baqtriyaliklarning dehqonchilik va chorvachilikdagi tajribalari maqtasa arzigulik bo'lgan. Yunon, Xitoy manbalarda yozilishicha, bu yerga dehqonchilik rivojlanib kelgan. Kvint Kursiy Ruf shunday yozadi: "Baqtriya tabiati boy va rang-barangdir. Ba'zi yerlarda ko'plab bog'-rog'lar va uzumzorlar bo'lib, shirin mevalarga to'la. Tuprog'i unumdor joylarda bug'doy ekiladigan, qolgan yerlar esa ayblovlardan iborat Hozirgi kunda Baqtriya tuprog'ida miloddan avvalgi I mingyillikning birinchi yarimiga oid 240dan ortiq qurol-yaroqlar, qal'a lar va shahar qoldiqlari topib o'rganilgan. Birgina Surxon vohasida joylashgan Kuchuktepa, Talashgan, Bandixon, Bo'yrachi, Qizilcha, Obisher, Sho'rtepa kabi yodgorliklari mavjud. Ular mudofaa devorlari va mudofaa burjlari bilan mustahkamlanganini qal'a va qo'rg'onlardir O'rta Osiyo viloyatlarining madaniy o'xshashliklariga sabab xalqlarning qo'shni qarindoshligi, umumiy urf odatlari, tili, savdo-sotiq, madaniy aloqalari, janubdagi yuqori darajada rivojlangan

² B. Eshov "O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi" T. 2012. 47-b



madaniyatning ta'siri, janubiy aholi bir qismining Xorazm chegaralari yaqinida istiqomat qilishi va aynan viloyat hududiga tarqalishi deb faraz qilingan. Agar ko'rsatib o'tilgan fikrlar, jumladan, keyingisi to'g'ri bo'lsa qabilalarning ichish jarayoni Fors podshosi Kir II ning yurishlaridan ancha oldin boshlangan. Janubiy viloyatlarning vakillari va mahalliy aholisining qo'shilishi natijasida yangi madaniyat va etnik jarayonlar vujudga kelishi mumkin edi. Bu vaziyat arxeologik va antropologik ma'lumotlariga ko'ra O'rta Osiyo va xususan O'zbekiston hududida bronza davrida va mil. avv.1- ming yillikning boshlarida ancha taraqqiy topgan A.Sagdullayevning tadqiqotlariga ko'ra Baqtriya haqidagi turli ma'lumotlar qadimgi Yunon tarixchilari Geradot, Ktesiy, Arrian, Strabon, Kvint Kursiy Ruf, Fosfor, Pliniy kabilarning asarlarida ham mavjud bo'lib ular bu podsholikning qadimiyligi va yuksak madaniyati haqida ma'lumotlar beradi. Yozma manbalar ma'lumotlari ko'p xollarda arxeologik ma'lumotlar bilan tasdiqlanadi. Arxeologiya ma'lumotlarining guvohlik berishicha mil.avv.VII-VI asrlarda Baqtriyada shaharlar shakllana borgan.³

Metodologiya. Ushbu maqolada qadimgi Baqtriya davlati, nomoddiy madaniy merosi, madaniyati va uning davlatchilikdagi o'rni tadqiq etiladi. Antik davrda madaniy-iqtisodiy jihatdan yuksalgan davlatlardan biri Baqtriya davlati hisoblangan. Baqtriya mustaqil davlat sifatida o'z tasarrufiga hozirgi O'zbekistonning Surxondaryo viloyati, Turkmanistonning sharqiy qismi, Tojikiston Respublikasining Amudaryo bo'ylari hamda Shimoliy Afg'oniston yerlarini qamrab olgan. Eramizdan avvalgi III asrdan to Kushonlar davrigacha bo'lgan uzoq davr davomida qadimgi Baqtriya madaniyatining rivoji bevosita ellinistik madaniyat ta'siri ostida tadrijiy ravishda rivojlangan.

Dolzarbli. Baqtriya madaniyatining rivoji bevosita ellinistik madaniyat ta'siri ostida tadrijiy ravishda rivojlangan. Shu boisdan ham Baqtriyada ellinistik san'at namunalari yetuk

³ E.V.Retveladze "O'zbekistonning tarixiy o'tmishi" T. 2009. 10-b



darajaga ko'tarilgan. Yunon-Baqtriya davlatida nafaqat arxitektura, haykaltaroshlik va tasviriy san'at taraqqiy etgan, balki teatr va musiqa san'atlari ham ancha rivojlangan.

Xulosa. Ushbu maqoladan kelib chiqqan xulosa shuki qadimgi Baqtriya hududida qadim zamonlardan boshlab kishilik jamiyati shakllana boshlaydi. Keyingi davrlarda esa asosan chet el bosqinchilari tomonidan ya'ni Ahamoniylar davlati undan so'ng Aleksandr Makedonskiy va Salavkiylar davlati tomonidan egallanib o'z mustaqilligini yo'qotadi. Shuningdek ushbu maqolada Baqtriya podsholigining madaniy hayoti va xo'jaligi haqida batafsil ma'lumot berildi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati.

1. A.S.Sagdullayev "O'zbekiston tarixi" Toshkent 2020
2. B. Eshov "O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruvi tarixi" T. 2012. 47-b
3. E.V.Retveladze "O'zbekistonning tarixiy o'tmishi" T. 2009. 10-b
4. B. Eshov "O'zbekiston davlatchiligi va boshqaruv tarixi" T. 2012
5. Begaliyev, N. X. (2023). THE PROBLEM OF TERMINOLGY IN ETHNOLOGY IN ETHNOLOGICAL RESEARCH. *Oriental Journal of Social Sciences*, 69-72.
6. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME'MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 538-546.
7. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО–ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.
8. Begaliyev, N., Xumoyun, A., & Shahlo, S. (2024). RTA OSIYO GIDROTEXNIKA INSHOOTLAR TARIXI SARDOBA VA KORIZLAR MISOLIDA. *UNIVERSAL JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES*, 2(9), 57-62.



9. Nurbek, B., & Ruxshona, A. (2023). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA XITOY BILAN DIPLOMATIK MUNOSABATLAR. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 11(10), 25-29.
10. Begaliyev, N., & Qizi, M. R. S. (2024). AMIR TEMUR DAVRIDA TANGA PUL MUNOSABATLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 35(1), 204-207.
11. Normamatova, M. (2024). AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA BUYUK IPAK YO 'LIDAGI DAVLATLARARO ALOQALAR. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 180-184.
12. Begaliyev, N. (2024). THE HISTORY OF THE SARDOBAS: ON THE EXAMPLE OF THE BUKHARA KHANATE. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 11(62), 268-270.
13. Baratov, K. (2024). SOME CONSIDERATIONS WITHIN THE CLASSIFICATION OF SOURCES ON THE HISTORY OF NAXHAB. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 11(03).
14. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
15. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
16. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 743-749.